UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA KOMPYUTER AMALIY DASTURLARDAN FOYDALANIB MASHG'ULOTLARNING SIFAT-SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI MUAMMO VA UNING YECHIMLARI

M.P.Masharipov
N.M.Xolikova
Toshkent shahar pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi katta o'qituvchilari

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ta'lim jarayonini sifat-samaradorligini oshirishda Edraw Max va Crossword Forge dasturlaridan foydalanib didaktik tarqatma materiallarni tayyorlash va ulardan pedagogik muammolarni hal etish imkoniyatlari keltirilgan.*

Kalit so'zlar*: Edraw Max, Crossword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, flayer*, AKT

Аннотация: *В данной статье представлены возможности подготовки дидактических раздаточных материалов с использованием программ Edraw Max и Crossword Forge для повышения качества и эффективности образовательного процесса и решения педагогических задач.*

Ключевые слова: *Edraw Max, Crossword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, flayer, ИКТ*

Annotation: *In this article, the opportunities for the preparation of didactic dissemination materials using Edraw Max and Crossword Forge programs and their solution to pedagogical problems are presented in improving the quality and effectiveness of the educational process.*

Keywords: *Edraw Max, Crossword Forge, Mind Maple, AvtoPlay, flayer, ICT*

Ta'lim sohasidagi barcha islohatlarning asosiy maqsadi ma'naviy jihatdan mukammal rivojlangan insonlarni tarbiyalash, ta'lim tizimini takomillashtirish, dars jarayonlarini yangi pedagogik va axborot texnologiyalari asosida har tomonlama zamon talabiga mos ravishda amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun ham bugungi kunda ta'lim - tarbiya tizimida axborot texnologiyalarining zamonoviy texnologiyalaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar- interaktiv doskalar, Smart doskalar, ta'limiy Planshetlar, Internet tarmoq dasturlari, vebinar va masofaviy darslar, mobil ilovalar, multimedia ilovalar va boshqalar ta'limda ko'plab imkoniyatlarni ochib berdi. Bu albatta ta'lim oluvchi yoshlarning ta'lim jarayonida noananaviy darslarga bo'lgan talabini oshirdi. Hozirgi kunda darslarda o'quvchilarni oddiy doska va bo'r bilan darslarga qiziqtirish sinf o'quvchilarining ma'lum qismigagina ta'sir etmoqda. Shuning uchun darslarda foydalaniladigan vositalar dars jarayonining asosini tashkil etadi. Bu esa o'qituvchilardan puxta tayyorgarlikni talab etadi. O'qituvchilar darslarni tashkil etishda didaktik tarqatma, axborot kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlar va boshqa vositalardan foydalanishi lozim. Bunda o'qituvchilar bunday vositalarni

yaratish va tayyorlashda ayrim muammolarga duch kelishmoqda. Shuning uchun dars jarayonlarini tashkil etishda va uni o‘tkazishda ayrim xatoliklar, o‘quvchilarni darslarga befarq bo’lishi, ta’lim olishiga qiziqishlarini pasayishi va boshqa muammolar kelib chiqmoqda hamda o’quvchilar tomonidan ham darslarga talab pasayib borrmoqda. Bu talablar asosida hozirgi kunda o‘qituvchilarning asosiy muammosi bu - dars jarayonioni qanday qiziqarli va mazmunli tashkil etish, mavzu bo’yicha o’quvchilardagi ta’limiy, tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshirish, ulardagi bilim, ko‘nikma, malaka va kompetentsiyalarini rivojlantirishga erishish mumkin. Bu muammolarni hal etishda albatta dars vostalaridan foydalanish orqali hal etishga erishish mumkin. Bugungi kunda ta’lim jarayonida samara beruvchi ko’plab kompyuter amaliy dasturlari va pedagogik dasturiy vositalar mavjud bo’lib bulardan ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bular Edraw Max, Crosword Forge, Mind Maple, AvtoPlay,iSpringPro va boshqalarni keltirishimiz mumkin.

Ta’lim jarayonida foydalaniladigan dars vositalari (darslik, tarqatma materiallar, texnik vositalar va boshqalar) dars jarayonini qiziqarli va o’qituvchi hamda o’quvchilar uchun ko’plab imkoniyatlar beradi.

Focusky - Innovatsion va professional taqdimotni yaratish oson. Fokusky, fonni yaratish, tahrir qilish, yo'llar, elementlar va animatsiyani qo'shishdan boshlab, taqdimotingizni jonli va ko'z qiluvchi dastur hisoblanadi. Bu dastur yordamida o’quv jarayonida foydalaniladigan taqdimotlarimizni turli multimedion ko’rinishda animatsiyalar ishtrokida taqdim etishimiz mukun.





Edraw Max dasturi yordamida pedagogik faoliyatda ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishda foydalanish juda katta samara beradi. **Edraw Max** dasturining asosiy vazifasi- flaer va didaktik tarqatma materiallar tayyorlash. Edraw Max dasturi didaqtik tarqatma materiallar va flayer dizaynini yaratishga mo‘ljallangan professional dastur. Edraw Max dasturi professonal ko‘rinishga ega bo‘lgan, flayer, sertifikat va boshqa turdagi tarqatma materiallarni tayyor shablonlar yordamida yaratish imkoniyatini beruvchi uskunalar paneliga egadir. Dastur avtomatik ravishda giper murojaatlar va tasvirlar qo‘shish imkoniyatiga egadir. Tayyor ma’lumotlarni PDF ga , PowerPoint formati ppt,ppn, MS Word dasturi (..doc) va boshqa grafik formatlarga eksport qilish imkoniyatiga ega. Dastur yordamida pedagogik tarqatma materiallar va ular ustida turli qo‘shimcha amallar bajarish

imkoniyatiga ega. Mashg‘ulotlar uchun didaktik tarqatma va ko‘rgazmali infografik materiallar tayyorlash o‘qituvchilar uchun bir muncha qiyinchilik, vaqt, AKT savodxonligi va boshqalarni talab qiladi. Ushbu dastur esa bu muammolarni oson va engil amalga oshirib beradi. O‘qituvchilar uchun kerak bo’ladigan tarqatmalar va ko’rgazmali infografik materiallarni o‘zida mujassamlashtirgan.

Bu dasturdan barcha fan mashg‘ulotlarida foydalanish mukin. Bu dastur yordamida tasvirlarga savollarni ochiq va yashirish imkoniyati orqali ham qiziqarli tashkil etish imkoniyatini beradi. F**izik va ximiya** fani mashg’ulotlari uchun mo‘ljallangan murakkab sxemalar va chizmalardan foydalanishimiz mukin.

Tasviriy san’at va texnologiya fanlari

Biologiya, geografiya fanlari va boshqalar.







Crossword Forge dasturi bu amaliy dastur ham mashg‘ulotlarda ta’lim sifat va samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Dastur krossvord va so‘z qidirish (Word Search) tuzish imkoniyatini beradi.

Dastur orqali mashishg‘ulotdagi muammolarni hal etish va dars jarayonlarini mazmunli va qiziqarli tashkil etish va o’quvchilardagi ko’plab g’oyalarni yuzaga chiqarish imkoniyatlarini beradi. Zamonaviy usullar yoki o‘qitishning samarasini oshirishga yordam beruvchi kompyuter dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarda ta’limga qiziqishini oshirish, kompyuter savodxonligini va mantiqiy, aqliy, ijodiy, adabiyotlarni o‘qishga va boshqalarga erishish orqali ularning kelajakda yetuk mutaxasis bo‘lishi uchun mustahkam zamin yaratadilar.

ADABIYOTLAR VA INTERNET SAYTLARI RO’YHATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent – 2016.
2. Sh.Mirziyoyev. “Erkin va farovon, demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent – 2016.
3. F.Zokirova, va boshqalar “Talimga raqamli texnologiyalarni joriy etish”.T.:2020 yil
4. B.Haydarov., D.Azamatova “Xalqaro baholash usullari”.:T.2019yil
5. https://www.capterra.com
6. https://focusky.com/
7. http://uzedu.uz- xalq ta’limi vazirligi veb sayti
8. http://Avloniy.uz – A.Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o‘rgatish milliy tadqiqot instituti;
9. http://toshedu.uz- Toshkent shahar XTXQTMOHM